O‘ZBEKISTON TARIXI

XIVA XONLIGINING TUGATILISHI VA TURKISTON MUXTORIYATI .

Muallif: Usmonova Ma’mura Suvonovna
Shahrisabz tuman 1-son texnikum
Tarix fani o'qituvchisi.
E-mail: mamurausmonova72@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ikki muhim siyosiy voqea — 1917-yil noyabrida Qo‘qonda e’lon qilingan Turkiston muxtoriyatining 1918-yil fevralida qurol kuchi bilan tugatilishi hamda Xiva xonligining 1920-yilda barham topishi tahlil qilinadi. Voqealarning tarixiy sharoiti, sabablari, borishi va oqibatlari yoritilib, ikki jarayon qiyosiy o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *Turkiston muxtoriyati, Qo‘qon, Mustafo Cho‘qay, jadidlar, Xiva xonligi, Said Abdullaxon, Junaidxon, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi.*

Аннотация: В статье анализируются два важнейших политических события, произошедших в Туркестане в начале XX века: провозглашение Туркестанской автономии в Коканде в ноябре 1917 года и ее ликвидация силой оружия в феврале 1918 года, а также падение Хивинского ханства в 1920 году. Освещаются исторические условия, причины, ход и последствия данных событий, проводится их сравнительный анализ.

Ключевые слова: Туркестанская автономия, Коканд, Мустафа Чокай, джадиды, Хивинское ханство, Саид Абдулла-хан, Джунаид-хан, Хорезмская Народная Советская Республика.

Abstract: The article analyzes two major political events that took place in Turkestan in the early 20th century: the proclamation of the Turkestan Autonomy ***in Kokand in September 1917 and its liquidation by military force in September*** 1918, as well as the fall of the Khiva Khanate in 1920. The historical conditions, causes, course, and consequences of these events are highlighted, and a comparative study of both processes is carried out.

Keywords: Turkestan Autonomy, Kokand, Mustafa Chokay, Jadids, Khiva Khanate, Said Abdullah Khan, Junaid Khan, Khorezm People's Soviet Republic.

KIRISH

XX asr boshlari Markaziy Osiyo tarixida chuqur o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston o‘lkasi, shuningdek uning himoyasidagi Xiva xonligi va Buxoro amirligi 1917-yilgi inqiloblar ta’sirida murakkab siyosiy jarayonlar girdobiga tortildi. Bu davrda mintaqada ikki xil yo‘l kurashdi: bir tomondan, jadidlar boshchiligidagi milliy ziyolilar o‘z davlatchiligini zamonaviy, demokratik asoslarda qayta tiklashga intildi; ikkinchi tomondan, Rossiyada hokimiyatga kelgan bolsheviklar o‘lkada sovet tuzumini o‘rnatishni maqsad qildi.

Turkiston muxtoriyati va Xiva xonligining tugatilishi mazkur kurashning ikki yirik bosqichidir. Birinchisi demokratik tajriba sifatida qisqa umr ko‘rib, Qo‘qon fojeasi bilan yakunlandi. Ikkinchisi esa asrlar davomida mavjud bo‘lgan xonlik tizimining yakuniy barham topishini bildirdi. Ushbu voqealarni o‘rganish nafaqat o‘tmish saboqlarini anglash, balki milliy davlatchilik tarixini to‘g‘ri baholash uchun ham muhimdir.

Maqolaning maqsadi — Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi va tugatilishi hamda Xiva xonligining tugatilishi jarayonlarini ilmiy manbalar asosida yoritish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir. Tadqiqotda tarixiy-xronologik, qiyosiy va tahliliy usullardan foydalanildi.

1. TURKISTONDA 1917-YILGI VAZIYAT

Turkiston o‘lkasi XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgan va general-gubernatorlik sifatida boshqarilgan edi. Mustamlaka boshqaruvi mahalliy aholining siyosiy huquqlarini cheklab, o‘lka boyliklaridan imperiya manfaatlari yo‘lida foydalanishni ko‘zlagan. Bu holat xalq noroziligini kuchaytirdi. 1916-yilda mahalliy aholini front orqasidagi ishlarga mardikorlikka olish haqidagi farmon o‘lkada katta qo‘zg‘olonga sabab bo‘ldi. Ko‘p turkistonliklar, ayniqsa keksalar, keyinchalik 1917-yil inqilobini aynan shu qo‘zg‘olonning mantiqiy natijasi deb qabul qilishgan.

1917-yil fevralida Rossiyada monarxiya ag‘darildi. Turkistonda hokimiyat Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasiga o‘tdi, biroq bu qo‘mita asosan rus amaldorlaridan iborat bo‘lib, mahalliy aholiga yetarli siyosiy huquq bermadi. Shunga qaramay, yangi sharoit jadidlar harakatiga keng imkon yaratdi. Jamiyatlar, gazetalar tuzildi, 1917-yil aprelida butun Turkiston musulmonlarining birinchi qurultoyi o‘tkazildi va Turkiston o‘lka musulmonlari sho‘rosi tashkil etildi. Sho‘roga qozoq huquqshunosi Mustafo Cho‘qay raislik qildi.

1917-yil oktabrida Petrogradda bolsheviklar hokimiyatni egalladi. Toshkentda ham sovetlar hokimiyati o‘rnatildi, biroq tuzilgan o‘lka hukumati asosan yevropalik vakillardan iborat bo‘lib, mahalliy xalqning ishtiroki deyarli ta’minlanmadi. Aynan shu holat Turkiston ziyolilarini o‘z taqdirini o‘zlari hal qilish yo‘lini izlashga undadi.

2. TURKISTON MUXTORIYATINING TASHKIL TOPISHI

1917-yil 26–28-noyabrda Qo‘qon shahrida Musulmonlarning IV o‘lka qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda Turkiston o‘lkasining siyosiy kelajagi muhokama qilindi. Delegatlar o‘lkani avtonom tarzda boshqarish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi va 27-noyabrda Turkiston muxtoriyati e’lon qilindi. Qurultoy o‘lkada hokimiyat Turkiston muxtoriyati muvaqqat kengashi va xalq majlisiga o‘tishi haqida qaror qabul qildi.

Turkiston muxtoriyati hukumati tarkibiga muvaqqat kengash a’zolari orasidan 12 kishi tanlab olindi. Muvaqqat kengashga Muhammadjon Tinishboyev raislik qildi, hukumatga esa Mustafo Cho‘qay boshchilik qildi. Hukumat tarkibida turli xalqlar vakillari bor edi: masalan, Obidjon Mahmudov oziq-ovqat vaziri sifatida faoliyat yuritdi, jadidlar yetakchilaridan Munavvarqori Abdurashidxonov ham hukumat tarkibida tilga olinadi. Muxtoriyatni qo‘llab-quvvatlagan ziyolilar orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi jadid arboblari ham bor edi.

Muxtoriyat parlament tizimiga asoslangan boshqaruvni ko‘zda tutgan, uning markazi Qo‘qon shahri bo‘lgan. Tuzilma o‘zbek, qozoq, tojik va boshqa xalqlar

manfaatlarini birlashtirishga intilgan. Muxtoriyatning e'lon qilinishi Turkiston xalqlari tarixida o'z milliy hukumatini tuzishga qaratilgan birinchi yirik urinish sifatida baholanadi. Shu sababli tarixiy adabiyotlarda u ko'pincha Markaziy Osiyodagi ilk demokratik davlat tajribasi deb ataladi.

3. MUXTORIYATNING FAOLIYATI VA QIYINCHILIKLARI

Muxtoriyat hukumati mavjud bo'lgan qisqa vaqt ichida o'z tuzilmalarini shakllantirishga, tartibni saqlashga va armiya tuzishga harakat qildi. Biroq uning imkoniyatlari juda cheklangan edi. Birinchidan, hukumat yetarli moliyaviy resurs va qurol-yarog'ga ega emas edi. Ikkinchidan, o'lkada oziq-ovqat taqchilligi kuchaygan, iqtisodiy ahvol og'ir edi. Uchinchidan, muxtoriyat hukumati ichida va uni qo'llab-quvvatlovchi kuchlar o'rtasida yagona fikr mavjud bo'lmagan.

Eng muhimi, muxtoriyat Toshkentdagi sovet hokimiyati bilan keskin ziddiyatga kirdi. Sovetlar muxtoriyatni «noqonuniy» va «burjua» tuzilma deb e'lon qildi. Bolsheviklarning asosiy maqsadi o'lkada «proletar muxtoriyati»ni, ya'ni sovet hokimiyatini mustahkamlash edi. 1918-yil yanvarida Toshkentda o'lka sovetlarining s'yezdi o'tkazilib, unda muxtoriyatga qarshi kurash masalasi ko'rildi. Shu tariqa har ikki tomon o'rtasida qurolli to'qnashuv muqarrar bo'lib qoldi.

4. MUXTORIYATNING TUGATILISHI VA QO'QON FOJEASI

1918-yil 30-yanvarda Turkiston xalq komissarlari soveti boshchiligidagi qo'shin muxtoriyat hukumatini tugatish maqsadida Farg'ona vodiysida harbiy harakatlarni boshladi. Sovet qo'shinlari Qo'qonni o'rab oldi. Muxtoriyat tarafdorlari, jumladan, Qo'qon uyezdi militsiya otryadlari boshlig'i Ergash qo'l ostidagi kuchlar qarshilik ko'rsatdi, ammo kuchlar nisbati teng emas edi. Qariyb uch hafta davom etgan janglardan so'ng 1918-yil 19-fevralda muxtoriyat armiyasi tamomila mag'lubiyatga uchradi.

Qo'qon shahri o'qqa tutilib, katta vayronaga uchradi. Tarixiy adabiyotlarda bu voqea «Qo'qon fojeasi» nomi bilan yuritiladi. Qurbonlar soni haqida manbalarda turlicha ma'lumotlar keltiriladi: ayrim tadqiqotlarda minglab tinch aholi halok bo'lgani aytilsa, boshqa manbalarda 10 mingdan ortiq odam qurbon

bo‘lgani qayd etiladi. Ayrim tadqiqotchilar shaharning o‘qqa tutilishi avval adabiyotlarda aytilganidek 3 kun emas, balki uzoqroq davom etganini ta’kidlaydi. Shuningdek, 22-fevralda imzolangan sulh hujjatida muxtoriyat hukumati yoki jadidlar vakillarining imzosi bo‘lmaganligi ham ilmiy munozara mavzusidir.

Muxtoriyat tugatilgach, uning yetakchilari turli taqdirga duch keldi. Mustafo Cho‘qay chet elga ketib panoh topdi va keyinchalik «1917-yil xotiralari» kitobida o‘sha voqealarni bayon etdi. Boshqa ko‘plab ishtirokchilar esa quvg‘in va ta’qiblarga uchradi. Sovet davrida muxtoriyat uzoq vaqt «burjua-millatchilik» harakati sifatida talqin qilindi va uning haqiqiy tarixi yopiq qoldi.

5. MUXTORIYAT TUGATILISHINING OQIBATLARI

Muxtoriyatning tugatilishi Turkistonda sovet hokimiyatining mustahkamlanishiga yo‘l ochdi. 1918-yil 20-aprelda Toshkentda sovetlarning V o‘lka s’yezdi chaqirilib, unda Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to‘g‘risidagi nizom qabul qilindi va Turkiston o‘lkasi Rossiya Sovet Federativ Respublikasi tarkibiga kiruvchi Turkiston ASSR sifatida e’lon qilindi. 1918–1921-yillarda o‘lka iqtisodiyoti og‘ir ahvolda bo‘ldi.

Qo‘qon fojeasi mahalliy aholining sovet hokimiyatiga munosabatiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Keyinchalik o‘lkada sovet tuzumiga qarshi qurolli qarshilik harakati kuchaydi, sovet tarixshunosligida u «bosmachilik» deb nomlandi. Bu harakat ishtirokchilari orasida dastlabki muxtoriyat tarafdorlarining ham bo‘lishi tarixchilar tomonidan qayd etiladi. Jadidchilik harakati esa muxtoriyatning qonga botirilishidan keyin kuchli zarba oldi.

Shunday bo‘lsa-da, Turkiston muxtoriyatining tarixiy ahamiyati katta. U o‘zbek va boshqa Turkiston xalqlari milliy davlatchilik g‘oyasining sovet davridan oldingi muhim bosqichi bo‘lib, mustaqil davlat qurish orzusining ramziga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekistonda muxtoriyat tarixi xolisona o‘rganilmoqda va uning yetakchilari xotirasi e’zozlanmoqda.

6. XIVA XONLIGI XX ASR BOSHLARIDA

Xiva xonligiga 1512-yilda Shayboniylar avlodidan Elbarsxon tomonidan asos solingan. 1770-yildan xonlik taxtini o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i vakillari egalladi. Xiva uzoq vaqt ichki urushlar girdobida bo‘lib, markaziy hokimiyat kuchsiz bo‘lgan; faqat Muhammad Rahimxon I davrida xonlik markazlashgan davlatga aylandi va eng katta chegaralarga erishdi.

XIX asrda Rossiya imperiyasining janubga yurishlari natijasida Xiva xonligi ham unga bog‘liq bo‘lib qoldi. 1873-yil 12-avgustda Rossiya va Xiva o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra xonlik Rossiya protektoratiga aylandi: xon ichki ishlarda rasmiy mustaqillikni saqlab qolgan bo‘lsa-da, tashqi siyosat va muhim hududlar imperiya ixtiyoriga o‘tdi. Xonlikning iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga tayangan edi. XX asr boshlariga kelib xonlikda ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi, islohotlarga intilgan yosh xivaliklar harakati paydo bo‘ldi.

7. JUNAIDXON VA XONLIKNING INQIROZI

1918-yil bahorida xonlikdagi parokandalikdan foydalanib, turkman-yovmut qabilasi sardori Junaidxon harbiy to‘ntarish qildi. U xon Asfandiyorni o‘ldirib, taxtga uning ukasi Said Abdullani o‘tqazdi. Biroq amalda bosh vazir sifatida xonlikni Junaidxonning o‘zi boshqardi, Said Abdullaxon esa «qo‘g‘irchoq xon»ga aylandi. Junaidxon boshqaruvi davrida xonlikdagi siyosiy ahvol yanada keskinlashdi, aholi noroziligi oshdi.

Yosh xivaliklar va xalqning bir qismi Junaidxon zulmidan norozi bo‘lib, sovet hokimiyatidan yordam kutdi. Sovet hukumati esa Xivadagi bu qulay vaziyatdan foydalanib, xonlikni bosib olish rejasini amalga oshirdi. 1919-yil oxiriga kelib sovet tomoni Xivaga yurish uchun tayyorgarlikni yakunladi, 1919-yil 22-dekabrda Turkiston Respublikasi Harbiy inqilobiy kengashi Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlash haqida qaror qabul qildi.

8. XIVA XONLIGINING TUGATILISHI

1920-yil yanvarida Junaidxon qo‘shinlari sovet qo‘shinlari tomonidan mag‘lub etildi. Junaidxon jangda qariyb 400 jangchisini yo‘qotib, Qoraqumga

qochib o‘tishga majbur bo‘ldi. 1920-yil fevral boshida G.K. Skalov boshchiligidagi sovet qo‘shinlari Xivani egalladi. 2-fevralda sovet qo‘mondonligi va yosh xivaliklarning bosimi ostida xon Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi. Shu tariqa Xiva xonligi amalda barham topdi.

Said Abdullaxon va uning oilasi keyinchalik hibsga olinib, hukmga ko‘ra Xorazm Xalq Sovet Respublikasidan badarg‘a qilindi. Uning uch o‘g‘li, akasi Muhammadyor va to‘rt jiyani ham Xorazmdan chiqarib yuborildi. 1922-yil 12-fevralda xon va uning qarindoshlari kutilmaganda ozod qilindi. Sobiq xon keyingi hayotini oddiy mehnat bilan o‘tkazdi.

Xonlikning tugatilishi rasmiy shaklda 1920-yil aprel oxirida Xivada o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining I ta’sis qurultoyida e’lon qilindi. Qurultoyda Xiva xonligi tugatilgani va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilgani bildirildi; ma’muriy markaz sifatida Xiva shahri tanlandi. Xuddi shu yili Buxoro amirligi ham tugatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topdi.

9. XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI VA UNING TUGASHI

Dastlab XXSR tuzumi jihatidan xalq demokratik respublikasi sifatida shakllandi. Qurultoyda 15 kishidan iborat Xorazm Xalq Nozirlar Nazorati (hukumat) tuzildi. Butun Xorazm xalq vakillarining qurultoylari respublikaning oliy organi hisoblanib, ular 1921-yil 15–23-may (II qurultoy), 1922-yil 15–23-iyul (III qurultoy) va 1923-yil 17–20-oktabr (IV qurultoy) kunlari o‘tkazildi. II qurultoyda konstitutsiya qayta ko‘rib chiqilib, Xorazm Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi saylandi.

Biroq respublikada ichki siyosiy ahvol barqaror bo‘lmadi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, respublika mavjud bo‘lgan taxminan besh yil ichida hukumat va Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raislari o‘n martaga yaqin almashtirildi. 1923-yil yoz-kuzida Sovet Rossiyasi ko‘rsatmasi bilan tub siyosiy to‘ntarish amalga oshirildi va 1923-yil oktabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi. 1924-yilda esa milliy-hududiy chegaralanish natijasida Xorazm hududi Qoraqalpog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston SSR tarkibiga taqsimlandi.

10. QIYOSIY TAHLIL

Turkiston muxtoriyati va Xiva xonligining tugatilishi bir davrda va bir kuch — sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning mohiyati turlicha edi. Quyidagi jadvalda ikki jarayonning asosiy jihatlari solishtirilgan.

Mezon	Turkiston muxtoriyati	Xiva xonligi
Mavjud bo‘lgan davr	1917-yil 27-noyabr – 1918-yil fevral (72 kun)	1512-yildan 1920-yilgacha (1873-yildan Rossiya protektorati)
Hokimiyat shakli	Parlament tizimiga tayanuvchi muxtoriyat	Monarxiya (xon boshqaruvi)
Markazi	Qo‘qon	Xiva
Siyosiy kuch	Jadidlar va milliy ziyolilar	Xon, qabila sardorlari, yosh xivaliklar
Tugatilish usuli	Harbiy yurish, Qo‘qon shahrining vayron etilishi	Harbiy yurish, xonning taxtdan voz kechishi
Tugatilish sanasi	1918-yil fevral (19-fevral)	1920-yil fevral (1–2-fevral)
Keyingi shakl	Turkiston ASSR tarkibida sovet boshqaruvi	Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, so‘ng Xorazm SSR

Birinchi farq — tuzilmalarning tabiatida. Turkiston muxtoriyati jadidlar g‘oyasiga tayangan, parlament boshqaruvini ko‘zlagan zamonaviy siyosiy tajriba edi. Xiva xonligi esa asrlar davomida shakllangan monarxiya bo‘lib, XX asr boshida ichki parokandalik va Rossiya bog‘liqligi sharoitida inqirozga yuz tutgan. Ikkinchi farq — tugatilish usulida: muxtoriyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy hujum va shaharning vayron etilishi bilan tugatilgan bo‘lsa, xonlikda sovet qo‘shinlari ichki

ziddiyatlardan, xalq noroziligidan foydalangan va xonning taxtdan voz kechishi rasman rasmiylashtirilgan.

Umumiy jihat shundaki, ikkala holatda ham mahalliy xalqning o‘z taqdirini mustaqil belgilash imkoniyati cheklandi, siyosiy hayotning yangi shakllari esa sovet markazi nazorati ostida bo‘ldi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi ham dastlabki mustaqil ko‘rinishidan so‘ng 1923-yilda sovet tipidagi respublikaga aylantirildi.

11. MAVZUNING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBALARDAGI TAFOVUTLAR

Turkiston muxtoriyati va Xiva xonligining tugatilishi masalasi turli davrlarda turlicha baholangan. Sovet tarixshunosligida muxtoriyat «burjua-millatchilik» tuzilmasi, Qo‘qon fojeasi esa «tinchlik o‘rnatish» sifatida talqin qilindi, Xiva xonligining ag‘darilishi esa «Xorazm inqilobi» deb nomlandi. Bu talqinlar voqealarning mohiyatini bir tomonlama ko‘rsatib, mahalliy xalqning o‘z taqdirini belgilashga intilishini soya ostida qoldirdi.

Mustaqillik yillarida mavzuga yondashuv tubdan o‘zgardi. Endilikda Turkiston muxtoriyati o‘zbek davlatchiligi va milliy uyg‘onish tarixining ajralmas qismi sifatida o‘rganilmoqda. Tadqiqotlarda jadidlarning ma’rifiy faoliyati, ularning siyosiy dasturi, muxtoriyat tuzilmasi va uning tugatilish sabablari chuqur tahlil qilinmoqda. Muxtoriyat yetakchisi Mustafo Cho‘qayning xotiralari, jadid adiblarining maqola va she’rlari, shuningdek, arxiv hujjatlari bu borada muhim manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, manbalarda ayrim tafovutlar uchraydi. Masalan, muxtoriyat e’lon qilingan sana 1917-yil 27-noyabr deb ko‘rsatiladi, ba’zi tadqiqotlarda esa uni «1917-yil dekabr» deb ham yozadilar; muxtoriyatning tugatilishi 19-fevralga, sulh esa 22-fevralga to‘g‘ri keladi, ayrim ishlarda butun voqea 19–22-fevral kunlari deb beriladi. Xiva shahri egallangan sana ba’zi manbalarda 1-fevral, boshqalarida 2-fevral deb ko‘rsatiladi. Qo‘qon fojeasi qurbonlari sonini ham tadqiqotchilar

turlicha baholaydi. Bu holat ilmiy ishda aniq manbaga havola qilish va farqlarni qayd etish zarurligini ko‘rsatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, bu mavzu yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O‘quvchi va talabalar voqealarni faqat sana va nomlar yig‘indisi sifatida emas, balki sabab va oqibatlar zanjiri, turli manbalarning o‘zaro solishtirilishi orqali o‘rganishi lozim. Shunda o‘tmishdagi ma’naviy saboqlar bugungi avlodning vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi.

12. JADIDLARNING ROLI VA TARIXIY SABOQLAR

Turkiston muxtoriyatining g‘oyaviy asosini jadidlar harakati tashkil etdi. Jadidlar xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish, yangi usul maktablari ochish, matbuot va teatrni rivojlantirish, shu bilan birga, o‘lka boshqaruvida mahalliy xalqning haq-huquqini ta’minlash uchun kurashdilar. 1917-yilda ular siyosiy faoliyatga o‘tib, qurultoylar chaqirdi, jamiyat va tashkilotlar tuzdi. Muxtoriyatning e’lon qilinishi ularning ko‘p yillik ma’rifiy va siyosiy faoliyatining natijasi edi.

Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy kabi ziyolilar o‘z asarlarida Turkistonning birligi va erkinligi g‘oyasini kuylashdi. Ularning aksariyati keyinchalik sovet tuzumi davrida ta’qib va qatag‘onga uchradi. Bu holat muxtoriyat g‘oyalari sovet hokimiyati uchun qanchalik xavfli deb hisoblanganini ko‘rsatadi.

Tarixiy saboqlar nuqtai nazaridan, ikkala voqea ham xalqlar o‘rtasidagi birlik va ichki barqarorlikning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Muxtoriyat kuchli armiya, moliyaviy zaxira va yagona siyosiy qarashga ega bo‘lmagani sababli o‘zini himoya qila olmadi. Xiva xonligida esa ichki parokandalik, hokimiyat uchun kurash va aholining noroziligi tashqi kuchlarning aralashuvi uchun qulay zamin yaratdi. Demak, davlat mustaqilligini saqlashning asosiy sharti — ichki birlik, adolatli boshqaruv va xalq ishonchidir.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Turkiston muxtoriyati qisqa, atigi 72 kun mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘zbek va Turkiston xalqlarining milliy davlatchilik g‘oyasi tarixida muhim o‘rin tutadi. 1918-yil fevralida uning qurol kuchi bilan

tugatilishi, Qo‘qon fojeasi o‘lkada jadidchilik harakatiga katta zarba berdi va sovet hokimiyatining mustahkamlanishiga yo‘l ochdi.

Xiva xonligining 1920-yilda tugatilishi esa mintaqadagi eski siyosiy tuzumning yakuniy barham topishini bildirdi. Junaidxon hukmronligi davrida kuchaygan ichki inqiroz, Rossiya protektorati va sovet qo‘shinlarining harbiy yurishi xonlik taqdirini hal qildi. Dastlab xalq respublikasi sifatida tashkil topgan Xorazm 1923-yilda sovet respublikasiga aylantirilib, 1924-yilda milliy-hududiy chegaralanish natijasida yangi respublikalar tarkibiga kirdi.

Ushbu voqealar o‘tmishdan saboq olish, milliy davlatchilik tarixini xolis o‘rganish va yosh avlodda tarixiy xotirani shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, manbalarda qurbonlar soni va ayrim sanalarga oid farqlar mavjudligi bu mavzuda yangi arxiv hujjatlari asosida tadqiqotlar davom ettirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Umri qisqa bo‘lgan Turkiston muxtoriyati: uning yetakchilari taqdiri qanday kechgan». Kun.uz, 2024-yil fevral.
2. «1917 yili Qo‘qon qonga botirilishida kimyoviy quroldan foydalanilganmi». Kun.uz, 2024-yil 26-fevral.
3. «Xivaning so‘nggi xoni Said Abdulla taxtdan voz kechganiga 100 yil bo‘ldi». Kun.uz, 2020-yil 12-fevral.
4. «Tashkil topish, yuksalish va xotima: o‘zbek xonliklari chegaralarining yangi xaritalari». Kun.uz, 2023-yil 27-mart.
5. Yuldosheva B. Tarixiy geografiya 1920–1924 yillar (BXSR va XXSR misolida). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.
6. Yuldosheva B. 1920–1924-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ... Oriental Renaissance.
7. Sharifova Sh. Turkiston ASSR tarixiy geografiyasi. Oriental Renaissance.

8. XXSRda sovet tuzumini mustahkamlashda Butun Xorazm xalq vakillari qurultoylarining o‘rni va roli (1920–1924). Jamiyat va innovatsiyalar jurnali.
9. «Xiva xonligi va Buxoro amirligining qizil armiya tomonidan tugatilishi». Arxiv.uz.
10. Turkiston muxtoriyatiga oid ilmiy maqolalar. InLibrary.uz elektron kutubxonasi.
11. Cho‘qay M. 1917-yil xotiralari.